



**DORIVOR STEVIYA O'SIMLIGI TO'GRISIDA
QISQACHA MA'LUMOT**

Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li¹

Yulbasov Avazbek Muhtarovich²

Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li³

Sultonov Xumoyun Mahmudjon o'g'li⁴

[muhammadmoydinabdurahmonmov@gmail.com¹](mailto:muhammadmoydinabdurahmonmov@gmail.com)

[avazbekakayulbarsov@gmail.com²](mailto:avazbekakayulbarsov@gmail.com)

[nazirjonovi@mail.ru³](mailto:nazirjonovi@mail.ru)

[xumoyunsu@gmail.com⁴](mailto:xumoyunsu@gmail.com)

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Andijon filiali ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Maqolada shakar o'rnini bosuvchi dorivor steviya o'simligi haqida ma'lumotlar berilgan va respublikamiz sharoitlarda urug'larilaridan va ko'paytirish va rivojlanishi to'g'risida so'zlangan.

Kalit so'zlar: O'rmon, steviya, shakar, nihol, agrotexnik talablar, rivojlanish, variant, urug'

Annotation: The article provides information about the medicinal plant stevia, used as a sugar substitute, and also discusses the issues of its propagation and cultivation from seeds in our country

Keywords: Forest, stevia, sugar, germination, agronomic requirements, development, variety, seeds

Respublikamizda barcha tarmoqlarda olib borilayotgan islohotlar qatorida o'rmon xo'jaligida ham bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida o'rmon ekinlar strukturasining yangicha tizimi joriy qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son "Dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni

rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida dorivor o'simliklarni etishtirish va ulardan dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etishga oid ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish uchun xalqaro moliya institutlarining grantlarini jalb etish jumladan o'rmon xo'jaligi bo'limlarida dorivor o'simliklarni ko'paytirish va uning xom-ashyosini tayyorlash sohasini rivojlantirish bo'yicha alohida chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Steviya (*Stevia*) vatani Janubiy Amerika qit'asi (Paragvay)ning tog'li hududlari bo'lgan steviya – (*Stevia rebaudiana* Bertoni) ning tabiiy zahiralari dengiz sathidan 300 m balandlikdagi xududlarda uchraydi. O'simlik Yaponiya, AQSh, Xitoy, Tailand, Isroil, Koreya, Rossiya, Moldova, Ukraina va boshqa mamlakatlarda madaniy holda etishtiriladi. Shimoliy Amerikada steviyaning 200 dan ortiq turlari o'sadi. Dunyo miqyosida 32 ming ga er maydonda steviya o'simligi etishtirilib, shundan 24 ming ga (75%) er maydon Xitoy Xalq Respublikasiga tegishlidir. Murakkabguldoshlar – Asteraceae oilasining steviya turkumiga 180 dan ortiq turdagi o'simliklar kiradi. Steviya – *Stevia rebaudiana* Bertoni ham shular jumlasidandir. Steviya, bo'yi 1 metrgacha etadigan bir yillik o'simlik. Uning barglari oddiy, poyada qarama-qarshi shaklda joylashgan, uzunligi 2-3 sm etadi. Barg yaprog'inng yuzasi silliq, oldi tomoni qalami holda joylashgan, gullari 3-4 mm uzunlikdagi 6-7 dona oq murakkab to'pgulda yig'ilgan, mevasi 3-4 mm sentyabr – noyabr oylari gullaydi, urug'lari oktyabr-noyabr oylarida pishib etiladi.



1-rasm Dorivor steviya o'simligi



O'simlikning kimyoviy tarkibi o'ziga xos bo'lib, barglarining tarkibida shirin ta'm beruvchi diterpenoid (steviozid) glikozidi mavjud. Steviozid moddasi 0,4 % li saxaroza eritmasidan 300 barobar, 10 % li shakar eritmasidan esa 150 barobar shirinroqdir. Steviozid konditer sanoatida, salqin ichimliklar, sharbat, saqich, har xil shirinliklar va konservalar tayyorlashda shakar o'rnida keng miqyosda ishlatiladi, undan doridarmon sifatida, qand diabete kasalligiga va modda almashinuvi buzilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa kasalliklarni davolashda foydalaniladi 1986-yil Stevia urug'i va ko'chati O'zbekistonga Paragvaydan olib kelingan. O'zbekiston o'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida 1987-1988 yillarda o'simlikning biologiyasi va uni ko'paytirish usullari o'rganiladi. Stevianing Shirin va Shakarbarg navlari yaratidsi 1994 va O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekish uchun Davlat reyestriga kiritildi.

Steviya shakarining ahamiyatli tomoni shundaki, hozirda uning iste'moldagi me'yori juda cheksiz darajada bo'lib, organizmlar uchun salbiy ta'siri kuzatilmagan.

Yurtimizda steviyani etishtirish hamda qayta ishlash jarayonlari o'rganib chiqilgan. Uni urug'lantirish, qalamcha usuli bilan ko'chatlarini etishtirish qo'llanib kelinmoqda. Olib borilayotgan amaliy ishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, respublikada etishtirilgan steviya o'simligining steviozid moddasi dunyoning ba'zi mamlakatlarida etishtirilgan o'simlik tarkibidagi steviozid miqdoridan ancha yuqori ko'rsatkichni – 19,7 % (Janubiy Koreyada esa 16 %) ni tashkil qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda dorivor va ziravor o'simliklarni ko'paytirish va madaniy plantatsiyalarini yaratish, farmasevtika tarmog'ini dorivor o'simliklarga bo'lgan talabini, ma'lum miqdorda qondirish imkoniyatini beradi. Steviya etishtirishda nimalarga e'tibor berish kerak Steviya subtropik, mo'tadil iqlimning havo haroratiga moslashgan bo'lib, 24°S gacha bo'lgan haroratda yaxshi o'sadi. Steviya yaxshi o'sadigan tuproqlar bu normal namlikdagi qumoq (qumli) tuproqdir. O'simlikni ekish va parvarish qilishda, uning normal rivojlanishi uchun zich bo'lmagan, drenaj tizimi yaxshi bo'lgan, quyosh nuri tushadigan, unumdor va sug'orish imkoniyati etarli bo'lgan er maydoni tanlanadi. Negaki, ushbu o'simlik quyosh yaxshi yoritmaydigan joylar(soya)da hamda unumsiz tuproqlarda yaxshi o'smaydi. O'simlik ko'chatlarini



ekish uchun tanlangan maydon kuzda 25-30 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Bunda shudgor qilinadigan maydonga gektar hisobida 100 tonna mahalliy o'g'it (go'ng), 200 kg fosfor solib, er shudgorlanadi. O'simlikning ildiz tizimi yaxshi taraqqiy etishi uchun ikki marta er yumshatiladi. Shuningdek, begona o'tlardan tozalanadi. O'simlik urug'ining unuvchanligi past bo'lib, tezda unuvchanlik qobiliyatini yo'qotadi. Shu sababli o'simlikni etishtirish dastlabki jarayoni issiqxonadan boshlanadi. Steviya urug'larini ekish (issiqxona sharoitida) uchun optimal muddat bu yanvar oyi hisoblanadi. O'simlik ko'chatlarini etishtirish uchun issiqxonalaridagi maxsus joy (pollar)ga ekiladi. Ekilgan urug'larning ustidan elakdan o'tkazilgan aralashma (1 go'ng:1 qum: 3 tuproq) sepiladi. Bunda tuproq qalinligi 0,2-0,3 sm da bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Havo harorati +15°S ga etishi o'simlik urug'lari unib chiqishi uchun qulay fursat hisoblanadi. Shu sababli steviya etishtirilishida dastlab urug'lar maxsus ko'chatxonalarda ekiladi. Harorat +18...+25°C darajada saqlanganda bir hafta ichida yosh ildizlari paydo bo'ladi. Steviya ko'chatlarning bo'yi 15-20 sm ga etganda, mart oyining oxiri va aprel oyining boshlarida, ochiq maydonga olib chiqiladi. Barg yoki urug' hosili olish uchun qator oraliqlari 2 hilda tortiladi. Barg hosilini olish uchun qator oralari 70 sm dan tortilib, nihollarni 20 sm oraliqda, urug'ni olish uchun qator oralari 90 sm dan tortilib, nihollarni 25 sm oraliqda ekiladi. O'simlikni oziqlantirish vegetatsiyasining ikkinchi oyidan boshlanadi. Mavsum davomida sug'orish (oktyabr oyigacha) o'simlikni holatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. O'simlikning o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, steviya 10°S dan past bo'lgan haroratda o'sishdan to'xtaydi. Bu uning tashqi muhitga bo'lgan munosabati va uning juz'iy moslanishi (idoadaptatsiya)ni bildiradi. Steviyaning hosildorligi gektar hisobida dastlabki yillarda 5-8 sentnergacha va keyingi yillarda 18-20 sentnerni tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda, steviya o'simligini bioekologik xususiyatlaridan kelib chiqib, respublikaning Janubiy hududlari (Surxondaryo, Qashqadaryo) hamda Samarqand va Toshkent viloyatlarida madaniy plantatsiyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. B.Yo. To'xtaev, T.X. Maxkamov, A.A. To'laganov, A.I. Mamatkarimov, A.V. Mahmudov, M.O'. Allayarov – «Dorivor va ozuqabop o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etish va xom-ashyosini tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma» Toshkent – 2015 y.
2. A.A. Lobanova, V.V. Budaeva, G.V. Sakovich – «Химия растительного сырья» 2004.-№1.-S.47-52.
3. I. G. Axmetov i dr – «Молодой учёный» Международный научный журнал № 14 (148) Kazan – 2017 g.
4. O.V. Bulavinova – Нетрадиционные растения – заменители сахара при диабете – Студенческая научно-практическая конференция «Образование, Наука, Производство – 2017» Ставропол, 1517 февраля 2017 g., 229-231.
5. O.V. Korpacheva Zinich, Yu.A. Chernaya – « Экстракты стевии сахарозаменители с лечебными свойствами» Kiev – 2010 g.
6. Yu.N. Korshakovskaya, V.S. Tarasenko – Стевия медовая -перспективная лекарственная культура для борьбы с сахарным диабетом – Лекарственные растения: биоразнообразие, технологии, применение: сборник научных статей по материалам II Международной научно-практической конференции. – Гродно: ГГАУ, 2014, 141-144.

Internet saytlar:

1. www.lexs.uz
2. www.herbal-grass.com
3. www.herbalrussia.ru
4. www.reseachgate.net
5. www.stevita.ru
6. <https://agro-olam.uz/steviya/>